



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 18-oktabr

561-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF–152-son Farmoni, shu haqidagi viloyat hokimining 2024-yil 11-oktabrdagi 475-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF–152-son Farmonini, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 11-oktabrdagi 475-6-0-Q/24-sonli qarorini tumanda ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF–152-son Farmoni, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 11-oktabrdagi 475-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining:

a) maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturi doirasida:

kichik va o‘rta guruhlardagi bolalarda kognitiv, psixomotor va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga;

katta va maktabga tayyorlov guruhlaridagi bolalarda bilim olish, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish;

b) 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab:

maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan Maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimida bolaning rivojlanish xaritasini yuritish amaliyotini joriy qilish;

maktabga tayyorlov guruhlarini tamomlagan bolalarga ularning rivojlanish xaritasi asosida bir yillik maktabga tayyorlovdan o‘tganlik haqida elektron sertifikat berishni yo‘lga quyish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullanganligi;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi 2025-yil 1-avgustga qadar: maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishi;

maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlarining o'zaro uzviyligi va muvofiqligini ta'minlashi;

maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturi doirasida ishlab chiqilgan elektron resurslar, audiovizual mahsulotlar va o'quv-metodik materiallarni Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimida joylashtirsin hamda ushbu materiallardan erkin va bepul foydalanish imkoniyatini yaratishi;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi nashriyot tashkilotlariga yuridik va jismoniy shaxslarga ularning buyurtmasiga asosan maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturi doirasida ishlab chiqilgan bolalar adabiyotlari, o'quv-metodik va didaktik materiallarni chop etish va yetkazib berish bo'yicha pullik xizmatlarni ko'rsatishga ruxsat etilganligi;

Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimida ota-onalar uchun shaxsiy kabinet yaratsin va unda bolaning rivojlanish xaritasi ma'lumotlarining joylashtirilishini ta'minlashi;

Belgilab qo'yilishicha, 2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha ta'lim sohasida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida:

maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachi-metodist lavozimi negizida amaldagi mehnatga haq to'lash shartlarini saqlab qolgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotining direktori o'rinbosari lavozimi joriy etilishi;

maktabgacha ta'lim tashkilotining direktori o'rinbosari zimmasiga ta'lim sifatini ta'minlash, pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ta'lim va tarbiya jarayonlariga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish vazifalari yuklanganligi;

respublikaning barcha tuman (shahar)larida kamida bittadan tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yiladi hamda ushbu tashkilotlarning direktor o'rinbosarlaridan iborat malakali trenerlar guruhi shakllantirilishi. Bunda malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda trenerlar uchun alohida tayyorlov kurslari tashkil etilishi;

barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning "Metodik mahorat soati", tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa "Metodik mahorat kuni" kabi shakllari bosqichma-bosqich joriy etilishi;

"Metodik mahorat kuni" doirasida tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotlari trenerlari tomonidan boshqa maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlari uchun o'quv mashg'ulotlari va seminarlar o'tkazilishi;

"Metodik mahorat soati" doirasida direktor o'rinbosarlari tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari faoliyati tahlil qilinadi, ularga metodik yordam ko'rsatilishi va kasbiy rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar berilishi;

trener sifatida faoliyat yuritayotgan direktor o'rinbosarlariga tegishli tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari huzuridagi maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini rag'batlantirish jamg'armalari hisobidan lavozim maoshining 20 foizi miqdorida qo'shimcha har oylik ustama haq to'lanishi;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 1-martdan boshlab tajriba-sinov tariqasida respublikaning uzoq va chekka hududlarida joylashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlarini joriy etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

belgilanishicha:

mobil malaka oshirish xizmatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi pedagogik mahorat markazlari tomonidan 4 ta auditoriya ko‘rinishidagi avtobuslar negizida tashkil etilishi;
nodavlat va davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari pedagoglariga mobil malaka oshirish xizmatlari pullik asosda ko‘rsatilishi;

avtobuslarni jihozlash “Bolalarning erta yoshdan rivojlanishiga ko‘maklashish” loyihasi doirasida Jahon banki tomonidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilishi;

avtobuslar haydovchilarining ish haqi, yoqilg‘i-moylash materiallari uchun va boshqa harajatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi pedagogik mahorat markazlarining pullik xizmatlaridan tushgan mablag‘lar hisobidan qoplanishi;

Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri jamg‘armasi hisobidan maktabgacha ta‘lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini ham rag‘batlantirishga ruxsat etilganligi;

Maktabgacha va maktab ta‘lim vazirligining 2025-yil 1-yanvardan boshlab tajriba-sinov tariqasida har bir tuman (shahar)dagi bittadan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida inklyuziv ta‘lim guruhlarini ochish to‘g‘risidagi tashabbusi qo‘llab-quvvatlanganligi;

belgilab qo‘yilishicha, inklyuziv ta‘lim guruhlarida alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan tarbiyalanuvchilar bilan ta‘lim-tarbiya va korreksion-pedagogik ishlarni olib borayotgan tarbiyachi, yordamchi-tarbiyachilar hamda o‘qituvchi-defektolog (logoped)larga alohida mehnat sharoitlari uchun lavozim maoshlari va bazaviy tarif stavkalariga nisbatan bir nafar bola uchun 10 foiz, ikki nafar bola uchun 20 foiz, uch nafar bola uchun esa 30 foiz miqdorida qo‘shimcha haq to‘lash tartibi joriy etilishi;

2025/2026-o‘quv yilidan boshlab shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq: davlat oliy ta‘lim tashkilotlarida maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha dual ta‘lim shakli joriy etilishi;

davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini shakllantirishda maktabgacha ta‘lim yo‘nalishining sirtqi va kechki ta‘lim shakllari bo‘yicha har yili kamida 200 ta maqsadli qabul kvotalari ajratilishi;

ushbu maqsadli qabul kvotalari bo‘yicha ajratiladigan o‘rinlarga maktabgacha ta‘lim yo‘nalishida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan pedagog kadrlar tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida qabul qilishi;

belgilab qo‘yilishicha:

davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini qurish va jihozlash davlat oliy ta‘lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan, ularni saqlash esa Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligiga ajratiladigan Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi;

davlat oliy ta‘lim muassasalari huzuridagi davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga ushbu muassasalar xodimlari va talabalarining farzandlari ustuvor ravishda qabul qilinishi;

qolgan bo‘sh o‘rinlarga tarbiyalanuvchilarni qabul qilish davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun o‘rnatilgan tartib asosida amalga oshirilishi;

belgilanishicha; maktabgacha ta‘lim tizimida faoliyat yuritayotgan xususiy sektor vakillarini qo‘llab-quvvatlash va yanada rag‘batlantirish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish maqsadida:

2018-2022-yillarda Davlat budjeti va xalqaro moliya tashkilotlari mablag‘lari hisobidan davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini tashkil etish uchun ajratilgan imtiyozli kreditlarni qaytarish muddati 5 yilga uzaytirilishi;

2025-yil 1-oktabrdan boshlab jismoniy shaxs bir paytning o'zida bir nechta oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida mehnat faoliyatini yuritayotgan bo'lsa, ijtimoiy soliq summasi uning bitta (asosiy) ish joyi bo'yicha to'lanishi;

2025-yil 1-sentabrdan boshlab davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish to'g'risidagi bitimlar Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimida elektron shaklda tuzilishi;

2025-yil 1-yanvardan boshlab qamrov darajasi past bo'lgan davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarining bo'sh turgan yer uchastkalarida davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yishga ruxsat etilishi;

2024-2025-yillarda maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari 3-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi;

Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'zlariga doimiy foydalanish huquqi bilan tegishli bo'lgan bo'sh yer uchastkalarida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yishga ruxsat etilgaligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Hudoyberdiyev), tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Hujayev) tumandagi tegishli muassasa, tashkilot va idoralar bilan birgalikda:

a) 2025-yil 1-yanvarga qadar maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashga oid idoraviy qurilish normalarini zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqsin;

b) 2025-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa dasturlar doirasida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha ishlab chiqiladigan loyiha-smeta hujjatlarida:

qurilish jarayonida energiya tejamkor materiallar va texnologiyalardan foydalanilishini;

ushbu tashkilotlarda majburiy tartibda elektr energiyasi iste'molining kamida 30 foizini qoplashga mo'ljallangan quyosh panellari o'rnatilishini nazarda tutsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov